


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turotova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI.....	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH.....	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH.....	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	349
A. B. Qurbonov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.....	375
Masharipova Maksuda Becnazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KORPORATIV MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	399
Abduraxmonov Farrux Talipjanovich	
HUJURLARNI ANIQLASH TIZIMLARIDA TAHDID MODELINI ISHLAB CHIQRISH.....	404
Barotova Zahro Akmaljon qizi	
G'ISHTNI QURITISH VA PISHIRISH JARAYONLARI.....	413
Askarov Xasanjon	
BUG' TURBINALI GENERATORLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIK YECHIMLARI.....	417
Xudoyqulov Zoki, Eshbekov Muxriddin	
EFFECTIVE WAYS TO USE DEVICES OPERATING IN A MECHATRONICS SYSTEM.....	421
Makhammaillo Aliboyev	
KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	427
Sharipova Aziza Faxriddin qizi	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH HOLATI VA INNOVATSION MODELAR TAHLILI	431
Xurshida Maxmadaminova	
O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	440
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSION MODEL OMILLARI VA DRAYVERLARI.....	446
Abruyeva Xilola Sherbekovna	
УПРОЩЕННЫЙ СПОСОБ ВЫЧЕРЧИВАНИЯ ПРОФИЛЯ ЗУБЧАТОГО КОЛЕСА ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ КУРСОВЫХ РАБОТ ПО «ТЕОРИИ МЕХАНИЗМОВ И МАШИН».....	455
Файзуллаев Асамитдин, Файзуллаев Салохитдин	
МОДЕЛИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	459
Джидибаева Гульзат, Абдуллаев Ильгор, Далиев Ахтам	
MAXSUS KIYIMBOR TO'QIMALAR UCHUN BAZALT XOMASHYOSINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	467
Mustanova Zilola Abdusamat qizi	
РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ И АЛГОРИТМОВ ПАРАМЕТРИЧЕСКОГО 3D-МОДЕЛИРОВАНИЯ ОДЕЖДЫ С УЧЁТОМ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ФИГУРЫ ЧЕЛОВЕКА	473
Каримбердиева Мохинур Шерзод кизи	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	481
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL MUHIT TUSHUNCHASI VA UNING FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	487
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
ANDIJON SHAHRI BOBURSHOH KO'CHASIDA TRANSPORT VOSITALARINING XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH.....	495
Meliqo'ziyev Abdulaziz Rasuljon o'g'li	
CHAQIQ TOSH ISHLAB CHIQRISH TANNARXINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI	501
Qosimov Karimjon, Zuhritdinov Alisher, Kosimova Maloxatxon, Zo'xriddinov Dilmurod, Mahammadjonov Nurmahamad	
COMPOSITION ANALYSIS OF DEMERCAPTANIZED RESIDUAL STREAMS AND GAS CONDENSATES AS RAW MATERIALS FOR THE SYNTHESIS OF MERCAPTAN-CONTAINED ODORANTS	508
Tilloeva Shakhnoza Fakhritdinovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI.....	514
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING TAMOYILLARI, USULLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.....	520
Farxod G'afforovich	

KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING TAMOIYILLARI, USULLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

Farxod G'afforovich

AT Xalq banki Qashqadaryo viloyati mintaqaviy markazi boshlig'i o'rinbosari – biznes menejeri

Annotatsiya: Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari, xususan, kredit portfelini shakllantirish hamda boshqarish tamoyillari, boshqaruv usullari va portfel sifatini baholash mezonlari tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining **2026-yil mart holatidagi** statistik byulleteni ma'lumotlari asosida **2020–2026-yillarda** bank tizimi kredit portfelining dinamikasi, muddatlar, valyutalar, tarmoqlar va maqsadlar bo'yicha tarkibi, muammoli kreditlar (NPL) darajasi, kapital yetarliligi hamda likvidlilik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida kredit portfelini boshqarish tizimidagi mavjud muammolar aniqlanib, portfel sifatini oshirish va kredit risklarini kamaytirishga qaratilgan muallifning ilmiy yondashuvlari hamda amaliy takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit portfel, kredit riski, diversifikatsiya, muammoli kreditlar (NPL), limitlash, stress-testlash, kapital yetarliligi, likvidlilik, daromadlilik.

Аннотация: Исследованы теоретические и методологические основы управления кредитным портфелем коммерческих банков, включая принципы формирования и управления кредитным портфелем, методы управления и критерии оценки качества портфеля. На основе данных статистического бюллетеня Центрального банка Республики Узбекистан **по состоянию на март 2026 года** проведён анализ динамики кредитного портфеля банковской системы **за 2020–2026 годы**, его структуры по срокам, валютам, отраслям и целевому назначению, а также уровня проблемных кредитов (NPL), достаточности капитала и показателей ликвидности. По результатам исследования выявлены существующие проблемы в системе управления кредитным портфелем и разработаны авторские научные подходы и практические рекомендации, направленные на повышение качества кредитного портфеля и снижение кредитных рисков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитный портфель, кредитный риск, диверсификация, проблемные кредиты (NPL), лимитирование, стресс-тестирование, достаточность капитала, ликвидность, доходность.

Abstract: The theoretical and methodological foundations of commercial bank credit portfolio management are examined, with particular emphasis on the principles of credit portfolio formation and management, management methods, and criteria for assessing portfolio quality. Based on the statistical bulletin of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan **as of March 2026**, the study analyzes the dynamics of the banking system's credit portfolio during **2020–2026**, including its composition by maturity, currency, sector, and lending purpose, as well as the level of non-performing loans (NPLs), capital adequacy, and liquidity indicators. The findings identify the existing challenges in the credit portfolio management system and propose the author's scientific approaches and practical recommendations aimed at improving portfolio quality and reducing credit risk.

Keywords: commercial banks, credit portfolio, credit risk, diversification, non-performing loans (NPLs), credit limits, stress testing, capital adequacy, liquidity, profitability.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatining asosiy yo'nalishi va daromad manbai kreditlash hisoblanadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-aprel holatiga bank tizimi jami aktivlarining 65 foizdan ortig'i kreditlarga to'g'ri keladi. Shu bois, kredit portfelini oqilona shakllantirish va samarali boshqarish bankning moliyaviy barqarorligi, daromadlilik hamda likvidlilikini ta'minlashning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Kredit portfel bank tomonidan turli qarz oluvchilarga ajratilgan va muayyan sanaga so'ndirilmagan kreditlar majmui bo'lib, u risk va daromadlilik mezonlari asosida tasniflangan holda boshqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son¹ Farmonida banklarning kredit portfel sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF–5992-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4811025>



kredit risklarini boshqarishning xalqaro standartlarga muvofiq mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi kredit portfelini boshqarishning ilmiy asoslangan tamoyillari, usullari va baholash mezonlarini amaliyotga tatbiq etishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Portfelni boshqarish nazariyasining ilmiy asoslari H. Markowitz tomonidan yaratilgan bo'lib, uning zamonaviy portfel nazariyasiga ko'ra, investor aktivlarni tanlashda nafaqat kutilayotgan daromadlilikni, balki riskni ham hisobga olishi hamda aktivlar o'rtasidagi korrelyatsiyaga asoslangan diversifikatsiya orqali portfelning umumiy riskini kamaytirishi lozim [3]. Mazkur nazariya keyinchalik bank kredit portfelini boshqarish amaliyotiga ham tatbiq etilib, kredit portfelini turli tarmoqlar, hududlar va qarz oluvchilar guruhlarini bo'yicha diversifikatsiya qilish zaruratining ilmiy asosini yaratdi.

P. Rose tijorat banki menejmentiga bag'ishlangan fundamental asarida kredit portfelini boshqarishni bank aktivlarini boshqarishning markaziy bo'g'ini sifatida baholab, kredit siyosati, kredit tahlili, portfel tarkibini rejalashtirish hamda muammoli kreditlar bilan ishlash bosqichlarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etgan [4]. J. Sinkey esa bank moliyaviy menejmenti doirasida kredit riskini baholashda qarz oluvchining kredit layoqatini tahlil qilish, kredit reytingi va portfel darajasidagi risk ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5].

Kredit bozoridagi axborot asimmetriyasi masalasi J. Stiglitz va A. Weiss tomonidan tadqiq etilib, banklar tomonidan kredit ratsionlashtirish holatlarining yuzaga kelish sabablari nazariy jihatdan asoslab berilgan [6]. Ushbu yondashuv kredit portfelini shakllantirishda qarz oluvchilarni to'g'ri saralash (skrining) hamda monitoring mexanizmlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bazel bank nazorati qo'mitasi hujjatlarida esa kredit riskini boshqarishning xalqaro standartlari, jumladan, kapital yetarliligi, yirik risklar konsentratsiyasini cheklash, kreditlarni tasniflash hamda ehtimoliy yo'qotishlarga zaxiralar yaratish talablari belgilangan [7].

Rus iqtisodchi olimlaridan O. I. Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan adabiyotlarda kredit portfelini baholash mezonlari sifatida kredit riski darajasi, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatilib, portfelni boshqarish bank kredit siyosatining amaliy ifodasi sifatida talqin etilgan [8]. Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida esa tijorat banklari kredit portfelini sifatini oshirish, muammoli kreditlarni kamaytirish hamda kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari O'zbekiston bank amaliyoti misolida yoritilgan [9].

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda, kredit portfelini boshqarishni bankning strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda kredit qo'yilmalarining hajmi, tarkibi, sifati va daromadlilikini rejalashtirish, tashkil etish, tartibga solish hamda nazorat qilishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida ta'riflash mumkin. Mazkur jarayon muayyan tamoyillarga asoslanadi, maxsus usullar vositasida amalga oshiriladi hamda ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni tayyorlash jarayonida me'yoriy-huquqiy hujjatlar, mavzuga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy hamda tanqidiy tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik asosini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2026-yil mart holatidagi Statistik byulleteni ma'lumotlari tashkil etadi. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, koeffitsiyentlar usuli hamda grafik usulidan foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Kredit portfelini boshqarish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi. Birinchidan, risk va daromadlilik muvozanati tamoyiliga ko'ra, bank portfel daromadlilikini maksimallashtirishga emas, balki qabul qilinayotgan risk darajasiga mutanosib daromadlilikni ta'minlashga intilishi lozim. Ikkinchidan, diversifikatsiya tamoyili kredit qo'yilmalarini tarmoqlar, hududlar, valyutalar, muddatlar va qarz oluvchilar guruhlarini bo'yicha taqsimlash orqali konsentratsiya riskini kamaytirishni nazarda tutadi. Uchinchidan, likvidlilikni ta'minlash tamoyili kreditlar muddatlari tarkibining bank resurs bazasi muddatlari bilan muvofiqligiga erishishga asoslanadi. To'rtinchidan, maqsadlilik va rejalilik tamoyili portfel tarkibini bank strategiyasi hamda kredit siyosatida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar asosida shakllantirishni anglatadi. Beshinchidan, uzluksiz monitoring tamoyili portfel sifatini doimiy ravishda kuzatib borish va aniqlangan tendensiyalarga o'z vaqtida tegishli choralar ko'rishni nazarda tutadi.

Kredit portfelini boshqarish jarayoni o'zaro bog'liq to'rt bosqichdan iborat yaxlit siklni tashkil etadi. Birinchi bosqichda bank kredit siyosati doirasida portfelning maqsadli tarkibi, risk ishtahasi va limitlar tizimi belgilanadi,

ya'ni rejalashtirish amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda kredit arizalarini ko'rib chiqish, qarz oluvchilarning kredit layoqatini tahlil qilish va kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish orqali portfel shakllantiriladi, ya'ni tashkil etish jarayoni amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda portfel tarkibi, sifati va daromadliligi muntazam kuzatilib, kreditlar risk darajasi bo'yicha tasniflanadi hamda ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar yaratiladi, ya'ni monitoring olib boriladi. To'rtinchi bosqichda monitoring natijalari asosida portfel tarkibiga tuzatishlar kiritiladi: limitlar qayta ko'rib chiqiladi, muammoli kreditlar restrukturizatsiya qilinadi yoki belgilangan tartibda balansdan chiqariladi, ya'ni tartibga solish amalga oshiriladi. Mazkur siklning uzluksizligi portfel sifatini o'zgaruvchan makroiqtisodiy sharoitlarga moslashtirib borish imkonini beradi.

Kredit portfelini boshqarish usullari sifatida limitlash, ya'ni bir qarz oluvchiga, tarmoqqa, hududga va valyutaga to'g'ri keladigan kreditlar ulushini cheklash, diversifikatsiya, kreditlarni tasniflash va ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar yaratish, kredit scoringi va ichki reyting tizimlari, stress-testlash, garov ta'minoti bilan ishlash, shuningdek, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish va undirish mexanizmlarini ko'rsatish mumkin. Portfel sifatini baholash mezonlari esa muammoli kreditlar (NPL) ulushi, portfel daromadliligi, konsentratsiya darajasi, kapital yetariligi va likvidlilik ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topadi. Quyida mazkur mezonlar asosida O'zbekiston bank tizimi kredit portfelining holati tahlil qilinadi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklari kredit portfel qoldig'ining dinamikasi (yil boshiga)²

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank tizimining kredit portfel 2020-yil boshidagi 211,6 trln so'mdan 2026-yil boshida 604,0 trln so'mga yetib, tahlil qilinayotgan davrda 2,9 barobar oshgan. 2026-yil 1-aprel holatiga esa ushbu ko'rsatkich 623,3 trln so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, portfelning yillik o'sish sur'ati 2020-yildagi 30,9 foizdan 2025-yilda 13,3 foizgacha barqarorlashgan. Mazkur holat Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan izchil pul-kredit siyosati, jumladan, asosiy stavkaning 2025-yil 24-martdan buyon 14 foiz darajasida saqlanayotgani hamda banklar tomonidan kreditlash jarayonida sifat ko'rsatkichlariga ustuvor ahamiyat berilayotgani bilan izohlanadi. Bu esa kredit portfelini boshqarishda ekstensiv o'sish modelidan barqaror va riskka yo'naltirilgan o'sish modeliga bosqichma-bosqich o'tilayotganini ko'rsatadi.

Kredit portfel tarkibining muddatlar va valyutalar kesimidagi holati portfel likvidliliigi hamda valyuta riskini baholashning muhim mezoni hisoblanadi (1-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistika byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-jadval


Tijorat banklari kredit portfelining muddatlar va valyutalar bo'yicha tarkibi³

Ko'rsatkichlar	01.01.2020-y.	01.01.2024-y.	01.01.2026-y.	01.04.2026-y.
Jami kredit portfeli, trln so'm	211,6	471,4	604,0	623,3
Shundan: qisqa muddatli kreditlar, trln so'm	18,0	62,4	72,2	72,8
Uzoq muddatli kreditlar, trln so'm	193,6	409,0	531,8	550,5
Uzoq muddatli kreditlar ulushi, foizda	91,5	86,8	88,0	88,3
Milliy valyutadagi kreditlar ulushi, foizda	52,3	55,4	60,8	60,5

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, kredit portfelida uzoq muddatli kreditlar ustunlik qilib, ularning ulushi **2026-yil 1-aprel holatiga** 88,3 foizni tashkil etgan. Bu, bir tomondan, iqtisodiyotning investitsion ehtiyojlarini moliyalashtirishda banklarning faol ishtirokini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, resurs bazasi asosan qisqa muddatli depozitlardan iborat bo'lgan sharoitda muddatlar transformatsiyasi riskini samarali boshqarish zaruratini yuzaga keltiradi. Ijobiy jihat sifatida portfelning dollarlashuv darajasi pasayib borayotganini ta'kidlash lozim: milliy valyutadagi kreditlar ulushi **2020-yil** boshidagi 52,3 foizdan **2026-yil 1-aprelga** kelib 60,5 foizga yetgan. Bu valyuta riskining kamayishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, portfelning qariyb 40 foizi chet el valyutasida shakllangani mazkur risk yuzasidan muntazam monitoring olib borishni taqozo etadi.

Qarz oluvchilar toifalari kesimida ham portfel tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. **2026-yil 1-aprel holatiga** kredit portfelining 60,3 foizi yuridik shaxslarga, 37,0 foizi jismoniy shaxslarga va 2,7 foizi yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'g'ri keladi. Bunda yakka tartibdagi tadbirkorlarga milliy valyutada ajratilgan kreditlar qoldig'i **2025-yil** boshidagi 9,8 trln so'mdan **2026-yil 1-aprelga** kelib 17,0 trln so'mga yetib, 74 foizga oshgani e'tiborga molikdir. Bu banklarning kredit siyosatida kichik tadbirkorlik segmentiga e'tibor kuchayib, portfelning qarz oluvchilar bo'yicha diversifikatsiya darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi. Kredit portfelini boshqarish nuqtai nazaridan mazkur tendensiya ijobiy baholanadi, chunki ko'p sonli mayda qarz oluvchilardan iborat portfel alohida yirik qarz oluvchilarga bog'liq konsentratsiya riskini kamaytiradi.

Kredit portfeli sifatini baholashning markaziy mezonini muammoli kreditlar (NPL) darajasi hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda asosiy qarz yoki foizlar bo'yicha to'lovlar 90 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan kreditlar muammoli kreditlar sifatida e'tirof etiladi (2-rasm).

2-rasm. Tijorat banklari muammoli kreditlari (NPL) dinamikasi, yil boshiga⁴


2-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, pandemiya davrida ajratilgan kreditlar bo'yicha to'lov intizomida yuzaga kelgan vaqtinchalik murakkabliklar natijasida NPL ulushi **2022-yil** boshida 5,2 foizgacha ko'tarilgan. Keyingi yillarda banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash tizimining takomillashtirilishi

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistika byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistika byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

va kredit tahlili sifatining yaxshilanishi hisobiga mazkur ko'rsatkich izchil pasayib, **2026-yil** boshida 3,0 foizni, **2026-yil 1-aprel holatiga** esa 3,2 foizni tashkil etgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat ulushi mavjud banklarda NPL darajasi **2026-yil 1-aprel holatiga** 3,4 foizni, boshqa banklarda esa 2,7 foizni tashkil etgan. Mazkur tafovut davlat ulushi mavjud banklarda avvalgi davrlarda davlat dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar ulushining nisbatan yuqoriligi, shuningdek, kredit tahlili va monitoring tizimlarini yanada takomillashtirish zarurati bilan izohlanadi.

Diversifikatsiya tamoyilining amalda qo'llanilishini baholash uchun kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha tarkibini ko'rib chiqamiz (3-rasm).



3-rasm. Kredit portfelining tarmoqlar bo'yicha tarkibi, 2026-yil 1-aprel holatiga, foizda⁵

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, kredit portfelining eng katta ulushi, ya'ni 36,4 foizi jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarga to'g'ri keladi. Sanoat tarmog'ining ulushi 22,3 foizni, qishloq xo'jaligining ulushi 10,2 foizni, savdo va umumiy xizmatlarning ulushi esa 7,5 foizni tashkil etadi. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining yuqoriligi portfel diversifikatsiyasini kuchaytiradi, chunki chakana kreditlar ko'p sonli mayda qarz oluvchilar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, alohida defolt risklari o'zaro muvozanatlashadi. Ayni paytda, chakana kreditlashning jadal o'sishi uy xo'jaliklarining qarz yukiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi hisobga olinib, Markaziy bank tomonidan tegishli makroprudensial cheklovlar qo'llanilmoqda. Maqsadlar kesimida esa portfelning 24,0 foizi aylanma mablag'larni to'ldirishga, 23,1 foizi asosiy vositalarni sotib olishga, 15,3 foizi aholining uy-joy sotib olishi va qurishiga yo'naltirilgan bo'lib, bu kreditlarning iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Kredit portfeli risklarini qoplash qobiliyatini baholovchi prudensial mezonlar, ya'ni kapital yetariligi va likvidlilik ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Bank tizimining kapital yetariligi va likvidlilik ko'rsatkichlari, foizda⁶

Ko'rsatkichlar	Minimal talab	01.01.2025-y.	01.01.2026-y.	01.04.2026-y.
Regulyativ kapital yetariligi	13,0	17,8	18,3	18,5
I darajali kapital yetariligi	10,0	14,8	15,2	15,8
Likvidlilikni qoplash me'yori (LCR)	100,0	212,3	207,5	244,6
Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR)	100,0	115,4	119,9	140,0
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	—	16,7	21,1	21,4

5 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistika byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

6 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistika byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank tizimining kapital yetarliligi va likvidlilik ko'rsatkichlari belgilangan minimal talablardan sezilarli darajada yuqori shakllanmoqda. Regulyativ kapital yetarliligi **2026-yil 1-aprel holatiga** 18,5 foizni tashkil etib, bu bank tizimida kredit portfeli bo'yicha kutilmagan yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli kapital buferi mavjudligini ko'rsatadi. Likvidlilikni qoplash me'yoring 244,6 foizga, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyentining esa 140,0 foizga yetishi portfeldagi uzoq muddatli kreditlar ulushining yuqoriligidan kelib chiqadigan muddatlar transformatsiyasi riski banklar tomonidan yetarli likvidlilik zaxiralari bilan muvozanatlashtirilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasining yuqoriligi, ya'ni **2026-yil mart oyida** 22,3 foizni tashkil etgani portfel daromadlilikini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur holat qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini muntazam baholab borish va uzoq muddatli kredit risklarini samarali boshqarish zaruratini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, kredit portfelini boshqarish risk va daromadlilik muvozanati, diversifikatsiya, likvidlilikni ta'minlash, rejalilik hamda uzluksiz monitoring tamoyillariga asoslangan, limitlash, tasniflash, scoring va stress-testlash kabi usullar vositasida amalga oshiriladigan hamda NPL darajasi, daromadlilik, konsentratsiya, kapital yetarliligi va likvidlilik mezonlari orqali baholanadigan uzluksiz boshqaruv jarayonidir. O'tkazilgan tahlillar O'zbekiston bank tizimi kredit portfeli hajmi **2020–2026-yillarda** 2,9 barobarga oshganini, NPL darajasi **2022-yildagi** eng yuqori ko'rsatkichdan so'ng izchil pasayib, 3,2 foizni tashkil etganini, shuningdek, kapital va likvidlilik buferlari me'yoriy talablardan yuqori darajada shakllanganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud banklarda NPL darajasining nisbatan yuqoriligi, portfelda uzoq muddatli va chet el valyutasidagi kreditlar ulushining salmoqliligi hamda foiz stavkalarining nisbatan yuqori darajada shakllanishi kredit portfelini boshqarish tizimini izchil takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlarni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, tijorat banklarida kredit riskini baholashning ichki reyting tizimlarini (IRB yondashuvi) hamda sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan kredit scoring modellari keng joriy etish lozim. Bu qarz oluvchilarning defolt ehtimolini yanada aniq baholash va kredit portfelini risk darajasi bo'yicha optimal shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, kredit portfelini makroiqtisodiy shoklar, jumladan, valyuta kursi, foiz stavkasi va tarmoq risklari bo'yicha muntazam stress-testlash amaliyotini yanada rivojlantirish hamda stress-test natijalarini bankning kapitalni rejalashtirish va limitlar tizimi bilan bevosita bog'lash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, davlat ulushi mavjud banklarda muammoli aktivlar bilan ishlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, NPL portfelini maxsus kompaniyalarga sotish, sekyuritizatsiya qilish va restrukturizatsiya mexanizmlarini kengaytirish orqali kredit portfeli sifatini yanada oshirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, portfelning valyuta tarkibini muvozanatlashtirish, ya'ni tabiiy xedjga ega bo'lmagan va valyuta tushumiga ega bo'lmagan qarz oluvchilarga chet el valyutasida kredit ajratishni yanada takomillashtirilgan risk baholash mezonlari asosida amalga oshirish hamda milliy valyutadagi uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish choralarini davom ettirish lozim.

Beshinchidan, kredit portfeli monitoringi jarayonlarini raqamlashtirish, kreditlarning maqsadli ishlatilishi va garov ta'minoti holatini masofadan kuzatish tizimlarini joriy etish hamda portfel hisobotlarini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 9) talablariga to'liq muvofiqlashtirish zarur.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tijorat banklari kredit portfeli sifatini yanada oshirishga, kredit risklarini samarali boshqarishga hamda pirovardida bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 12-maydagi** PF–5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Markowitz, H. Portfolio Selection // *The Journal of Finance*. – 1952. – Vol. 7, No. 1. – P. 77–91.
3. Rose, P., Hudgins, S. *Bank Management & Financial Services*. – 9th ed. – New York : McGraw-Hill Education, 2013. – 768 p.
4. Sinkey, J. F. *Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry*. – 6th ed. – New Jersey : Prentice Hall, 2002. – 696 p.
5. Stiglitz, J. E., Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // *The American Economic Review*. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410.
6. Basel Committee on Banking Supervision. *Principles for the Management of Credit Risk*. – Basel : Bank for International Settlements, 2000. – 26 p.
7. **Bankovskoe delo** : uchebnik / pod red. O. I. Lavrushina. – Moskva : KNORUS, 2016. – 800 s.
8. Abdullayeva, Sh. Z. *Bank ishi* : darslik. – Toshkent : «Iqtisod-Moliya», 2017. – 732 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Statistik byulleten*. – **2026-yil mart**. – URL: <https://cbu.uz> (murojaat qilingan sana:



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100